

OILADA BOLANING BO`SH VAQTINI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Kdirbayeva Kamshat Maxsetovna

Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang`ich ta`lim fakulteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15367928>

Annotaciya. Maqolada oyla tarbiyasi mazmuni, vazifalari, bo'sh vaqtning rolini oshirish oila hayotini to'g'ri ritm va rejim asosida tashkil etish, uning a'zolari orasida majburiyatlarni oqilona taqsimlash, mehnat va dam olishni rejalashtirish, shuningdek oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o'rinn tutishi haqida soz etiladi.

Kalit sózlar: Oyla, tarbiya, ota-onा, tafakkur.

CONTENTS OF ORGANIZING A CHILD'S FREE TIME IN THE FAMILY

Abstract. The article examines the content, tasks of family education, the importance of increasing the role of free time, organizing family life based on the correct rhythm and regime, rational distribution of responsibilities between its members, planning work and rest, as well as the important role of economic education organized in the family in the formation of economic literacy and thinking in children.

Key words: Family, education, parents, thinking.

СОДЕРЖАНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ СВОБОДНОГО ВРЕМЕНИ РЕБЕНКА В СЕМЬЕ

Аннотация. В статье рассматриваются содержание, задачи семейного воспитания, значение повышения роли свободного времени, организация жизни семьи на основе правильного ритма и режима, рационального распределения обязанностей между ее членами, планирования труда и отдыха, а также важная роль экономического воспитания, организованного в семье, в формировании экономической грамотности и мышления у детей.

Ключевые слова: Семья, воспитание, родители, мышление.

Oila tarbiyasi-ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydatli mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko'rsatadi.

Ayniqsa, hozirgi vaqtida oilaning bo'sh vaqtini va dam olishni tashkil etish funksiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bo'sh vaqt deganda biz shartli ravishda ishdan tashqari (erkin) vaqtini tushunamiz. Bo'sh vaqt – muhim ijtimoiy qadriyatlardan biri, insonning jismoniy va ma'naviy kuchini qayta tiklash, shaxsni har tomonlama rivojlanishining takrorlanmas vositasi.

Bo'sh vaqtning rolini oshirish oila hayotini to'g'ri ritm va rejim asosida tashkil etish, uning a'zolari orasida majburiyatlarni oqilona taqsimlash, mehnat va dam olishni rejalashtirishga imkon beradi.

Oilaviy bo'sh vaqt o'zida birgalikda o'qish (kitob, gazeta, jurnal), radio eshitish, televizor ko'rish, qarindoshlar, do'stlar, tanishlar bilan uchrashish, kutubxona, teatr, kontsert saroylari va kinoteatrlarga tashrif buyurish; yillik ta'tilni birga o'tkazish; ko'ngilochar bog', sayohat, sayrga chiqish; sport bilan shug'ullanish, musobaqalarda ishtirok etish; bayramlar o'tkazishni aks ettiradi.

Eng avvalo, oiladagi tarbiya mazmuni demokratik jamiyatning bosh maqsadi bilan belgilanadi. Jamiyatimizning bosh maqsadi – har tomonlama barkamol, erkin fikrli shaxsni tarbiyalash ekan, oila tarbiyasini mazmuni ham o'zida ana shu oliy maqsadni ifodalashi zarur.

Shaxsning jismoniy va psixologik sog'lomligini ta'minlash, intellektual, axloqiy jihatdan rivojlantirish, mehnat, jamiyat va oilaviy hayotga tayyorlash oilaning majburiyatlaridir. Oilaviy tarbiya mazmunining tarkibiy qismlari o'zida jismoniy, axloqiy, intellektual, estetik, mehnat tarbiyasini aks ettiradi. Shu bilan birga bu jarayon o'sib kelayotgan avlodga iqtisodiy, ekologik, siyosiy, jinsiy ta'lim berish bilan to'dirib boriladi.

Davlatimiz bugungi kunda bolalarni va yoshlarni jismoniy tarbiyalashni dolzarb vazifa sifatida belgilab bergen. Oilada jismoniy tarbiya sog'lom turmush tarziga asoslanadi va kun tartibini to'g'ri tashkil etish, sport bilan shug'ullanish, organizmni chiniqtirishni o'z ichiga qamrab oladi. Oiladagi jismoniy tarbiya quyidagi vazifalarni hal etishga qaratiladi:

- sog'liqni mustahkamlash, bolalarni jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishiga ko'maklashish;
- asosiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish;
- estetik sifatlarni shakllantirish;
- axloqiy sifatlarni shakllantirish;
- gigienik ko'nikma va malakalarini hosil qilish;

Bolalarning sog'lom bo'lishlarida ularning kundalik rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak.

Intellektual tarbiya ota-onalarning bolalarning bilimlarini boyitish, ularni egallah va doimiy yangilab borish ehtiyojlarini shakllantirishga qiziqish bilan ishtirok etishini talab etadi.

Bilishga qiziqish, qobiliyatlarni rivojlantirish markazida ota-onalarning g'amxo'rliqi turadi. Bu borada ota-onsa yoki oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi. Oila muhitida bolaning aqliy jihatdan tarbiyalab borishda konstrukturlik o'yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o'yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbathlarning uyuştirilishi bu borada o'zining ijobjiy samarasini beradi.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyuştirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-onsa hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik,adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir.

Oilada estetik madaniyatni shakllantirish – bu borliqdagi va san'atdagi go'zallikni to'liq idrok etadigan va to'g'ri tushunadigan shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon.

U o'zida badiiy kechinmalar, qarashlar va e'tiqodlar tizimini aks ettiradi, haqiqiy estetik qadriyatlardan zavqlanishni ta'minlaydi.

Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga yetishida mehnatning roli kattadir.

Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibrati, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir. Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo'lish, ishni rejali olib borish, vaqtadan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish, shuningdek, o'zgalar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo'lgan ne'matlarni asrab-avaylashga o'rgatadi.

Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayonda bolalarda «inson-tabiat-jamiyat» tushunchalari o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro muvofiqlik borasidagi g'oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi. Oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko'chatlarni o'tkazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas'ullik tuyg'usini shakllantiradi.

Oilaviy hayotning me'yorida bo'lishi ko'p jihatdan oila byudjetining holatiga ham bog'liq.

Shu bois oila a'zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag'larni tejab-tergab, ulardan o'rinali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o'rinni tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a'zolarining namunasi katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga egadir.

Yuqoridagilarni umumlashtirib xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ota-onalar uchun oila tarbiyasi – bolalarda jismoniy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan, chuqur anglangan jarayondir. Har bir ota-ona o'z bolasida nimani tarbiyalashni istayotganligini yaxshi tushunishi zarur. Bu esa oila tarbiyasining chuqur anglanganlik tavsifini aniqlab beradi va tarbiyaviy vazifalarni hal etishga oqilona yondashuvni talab etadi.

REFERENCES

1. Toxtoxodjaeva M. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Moliya, 2008,
2. Obshaya pedagogika / Pod.red. V.A. Slastenina – M.: Vlados, 2003,